



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 6, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 6, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2023

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Раҳмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети


Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000


1. Зайнаб Абидова ХОРАЗМ ВОҲАСИ ЗИЁРАТГОҲЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ШАКЛЛАНИШИ ВА МЕЪМОРИЙ ТУЗИЛИШИ.....	4
2. Гулзода Алимова АЛИШЕР НАВОЙИ АСАРЛАРИНИНГ ТАРИХНАВИСЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	11
3. Дилорам Бабажанова АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ – ЎРТА АСР БУЮК ДАҲОСИНИНГ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИ МАЪНАВИЙ ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎРНИ.....	18
4. Iqbol Jabbarova QASHQADARYO VOHASIDA IRRIGATSIYA INSHOOTLARI QURILISHI, YERLARNING SUG‘ORILISHI TARIXI.....	26
5. Дилнавоз Рахматова “ПАХТА ИШИ” СИЁСАТИДА ҚЎШИБ ЁЗИШ ОПЕРАЦИЯСИ СЦЕНАРИЙСИ.....	33
6. Сохиба Сулайманова СУҒД ВОҲАСИДА ҒАРБИЙ ТУРК ХОҚОНЛИГИ БОШҚАРУВИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН УСУЛЛАР.....	38
7. Икромжон Умаров СУРҲОН ВОҲАСИДА РУС КАПИТАЛИНИНГ ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ НАТИЖАЛАРИ.....	45
8. Акмал Менглибоев СУРҲОНДАРЁ ОКРУГИДА МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИНИ ТЎХТАТИШ УЧУН АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЧОРАЛАР.....	65
9. Firyuza Muxitdinova DUNYO OLIMLAR TAHLILIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ILMIY MEROSINING O‘RGANGANLIK HOLATI VA AHAMIYATI.....	76
10. Нигина Султонова БУХОРО МИЛЛИЙ ЛИБОСИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ТАРИХИ.....	83
11. Одилжон Хамидов БАКТРИЯ САТРАПЛИГИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАРДА ЁРИТИЛИШИ.....	89
12. Nodira Hasanova SO‘NGGI O‘RTA ASRLARDA O‘RTA OSIYODA HUNARMANDCHILIK MARKAZLARINING TAKOMILLASHTIRILISHI.....	95



Iqbol Xo‘jamuratovna Jabbarova,
Qarshi davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrası dotsenti
iqbol.jabbarova@gmail.com

QASHQADARYO VOHASIDA IRRIGATSIYA INSHOOTLARI QURILISHI, YERLARNING SUG‘ORILISHI TARIXI

For citation: Iqbol Kh.Jabbarova. HISTORY OF CONSTRUCTION OF IRRIGATION SYSTEMS AND LAND IRRIGATION IN KASHKADARYA OASIS. Look to the past. 2023, vol. 6, issue 8, pp.26-32

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8217930>

ANNOTATSIYA

Maqolada XX asrning 60-yillarida Qashqadaryo vohasida yerlarning sug‘orilishi va o‘zlashtirilishi, xususan, Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq jarayonda suv xo‘jaligida sug‘orish tizimlarining qurilishi tarixi haqida so‘z yuritilgan. Irrigatsiya inshootlariga bo‘lgan ehtiyojning yuzaga kelishi va ularning qurilishi jarayonlarining borishi arxiv manbalar hamda birlamchi adabiyotlar bilan qiyoslab yoritilgan. Shuningdek, Qashqadaryo vohasida suv inshootlarining barpo etilishidagi muammolar bilan birga olib borilgan o‘zgarishlarning natijasi tadqiq etilgan. Vohada suc inshootlari qurilishining ijobiy va salbiy jihatlari xolisona tahlil qilingan hamda Qashqadaryo vohasida sug‘orish tizimlarining taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi dalillangan. Irrigatsiya qurilishida olib borilgan ishlar ko‘lamida bajarilgan ishlar o‘rni va ahamiyati tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zla: Qarshi cho‘li, irrigator, meliorator, kanal, suv ombor, nasos stansiya, zovur, kollektor, irrigatsiya inshooti, suv tarmoqlari, texnika.

Икбол Хужамуратовна Жаббарова,
Каршинский государственный университет
доцент кафедры “История Узбекистана”
iqbol.jabbarova@gmail.com

ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА ОРОСИТЕЛЬНЫХ СООРУЖЕНИЙ И ОРОШЕНИЯ ЗЕМЕЛЬ В КАШКАДАРЬИНСКОМ ОАЗИСЕ

АННОТАЦИЯ

В 60-х годах 20 века в статье рассказывается об истории строительства оросительных систем в водном хозяйстве в процессе орошения и освоения земель Кашкадарьинского оазиса, в частности освоения Каршинской пустыни. Возникновение потребности в ирригационных сооружениях и ход процессов их строительства сопоставляются с архивными источниками и первичной литературой. Также были изучены результаты проведенных изменений наряду с

проблемами в строительстве водных объектов в Кашкадарьинском оазисе. Объективно проанализированы положительные и отрицательные стороны строительства водохозяйственных сооружений в оазисе и доказан вклад в развитие оросительных систем в Кашкадарьинском оазисе. Проанализированы роль и значение работ, выполняемых в сфере ирригационного строительства.

Ключевые слова: пустыня Кары, ороситель, мелиорация, канал, водохранилище, насосная станция, арык, коллектор, оросительное сооружение, водопроводные сети, оборудование.

Ikbol Kh.Jabbarova,
Associate Professor of the
Department of “History of Uzbekistan”
iqbol.jabbarova@gmail.com

HISTORY OF CONSTRUCTION OF IRRIGATION SYSTEMS AND LAND IRRIGATION IN KASHKADARYA OASIS

ABSTRACT

In the 60s of the 20th century, the article tells about the history of the construction of irrigation systems in the water sector in the process of irrigation and land development of the Kashkadarya oasis, in particular, the development of the Karshi desert. The emergence of the need for irrigation facilities and the course of their construction processes are compared with archival sources and primary literature. The results of the changes carried out were also studied along with problems in the construction of water facilities in the Kashkadarya oasis. The positive and negative aspects of the construction of water facilities in the oasis are objectively analyzed and the contribution to the development of irrigation systems in the Kashkadarya oasis is proved. The role and significance of the works carried out in the field of irrigation construction are analyzed.

Index Terms: Kara desert, irrigation system, melioration, canal, reservoir, pumping station, canal, collector, irrigation facility, water supply networks, equipment.

1. Dolzarbligi:

Bugungi kunda yer yuzining ko‘plab mamlakatlarida yuz berayotgan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining taqchilligiga barham berish, aholining ularga bo‘lgan talabini to‘la qondirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash ustuvor vazifa va dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bunday muhim vazifalarni amalga oshirishda irrigatsiya va melioratsiya sohalarini zamon talablari asosida jadal rivojlantirish, suvni tejaydigan yangi texnologiyalarni joriy etish, unumdor yerlardan oqilona foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlari asosida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini son va sifat jihatidan ko‘paytirish, sug‘oriladigan yerlardan intensiv foydalanish, sug‘orish texnikasi va usullari tizimini innovatsiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda

Ma‘lumki, yangi yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orish tizimi bo‘yicha shu soha kishilari tomonidan amalga oshirilgan ishlar, turli tadbirlar va islohotlarning ijobiy va salbiy natijalari vaqtlar o‘tishi bilan o‘tmishga, tarixga aylanadi. Demak, dehqonlar, quruvchilar, irrigatorlar va melioratorlarning yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orish bilan aloqador ishlarining barchasi og‘zaki tarixda va yozma manbalarda, davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlarda muhrlanib qoladi va ular yangi yerlarni o‘zlashtirish va sug‘orish jarayonidagi ishlarning o‘tmish tarixini tashkil etadi. Chunki, O‘zbekiston viloyatlarining har birining yangi yerlarni o‘zlashtirish, irrigatsiya tizimi tarixi mavjud bo‘lib, bu tarix zamirida ko‘plab insonlarning mashaqqatli va sharaflil mehnati tarixi, shuningdek ba‘zi hollarda noto‘g‘ri olib borilgan tadbirlarning salbiy oqibatlari yotadi.

Taassufki, shu kunga qadar O‘zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida yetakchi o‘rinda turuvchi va ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lgan viloyat, ya‘ni Qashqadaryo vohasining yangi yerlarning o‘zlashtirilishi va sug‘orilish tizimi tarixi maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Shu sababli uni

o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi va bugungi kunning talabi bo'lib qolmoqda. Yuqoridagi fikr-mulohazalar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolani shakllantirishda tarixiylik, ilmiylik, xronologik ketma-ketlik, qiyosiylik, xolislik, tanqidiy yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Suv xo'jaligi sohasidagi mutaxassis kadrlarning shakllanishi hamda rivojlanishidagi yutuqlar bilan birga muammolar, bu boradagi islohotlar mohiyati ochib berilgan.

Qashqadaryo vohasida irrigatsiya tizimi va gidrotexnik inshootlarni o'rganishga harakat qilgan tarixchi Q. Abdullayevning tadqiqotida Sovet hukumatining Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida urushdan keyingi yillardagi qishloq xo'jaligi, irrigatsiya va melioratsiyasi haqida so'z boradi. Qashqadaryoda XX asrning 50 yillarida aholining Eskianhor kanali, Chimqo'rg'on suv ombori qurilishlaridagi fidokorona mehnatlari tarixi tahlilga tortilgan. Shuningdek, tarixchi Q. O'ljaboyev tadqiqotida Qashqadaryo vohasida yer-suv islohotlarining amalga oshirilishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri masalasini birlamchi arxiv va davriy nashr materiallari asosida tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqot materiallari asosida monografiya ham nashr ettirgan. M. Xudoyqulovning «Qarshi cho'li» nomli asarida «Qarshiqurilish» maxsus birlashmasining 35 yillik faoliyati yoritilgan. Bu davrda irrigator X.Toshevning voqa irrigatsiyasining o'tmishi haqida xotiralari jamlangan bir qator xotiranoma tarzidagi kitoblarida vohadagi suv inshootlari qurilishi borasida qimmatli ma'lumotlar bilan tankeltiriladi.

3. Tadqiqot natijalari:

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan islohotlarning natijasida Qarshi cho'lini o'zlashtirish loyihalarining tasdiqlanishi va bu bo'yicha hukumatning huquqiy-meyoriy hujjatlarining qabul qilinishi vohada yirik irrigatsiya inshootlarining qurilishini boshlab berdi. Cho'ldagi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirishda bevosita hududdagi sug'orish tizimi tarmoqlarini yo'lga qo'yish, irrigatsiya inshootlarini qurish ishlari bilan bog'liq edi. Shuningdek, bu boradagi tadbirlar Markazning paxtaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida ham jadallashtirilib, natijada cho'lni o'zlashtirishda Sovet hukumati vohada yirik sug'orish tizimi tarmoqlari: kanallar, suv omborlar, gidrotexnik inshootlar qurilishiga katta e'tibor qaratdi.

Markaz tomonidan o'zlashtirilgan yerlarda paxtachilikka ixtisoslashgan tumanlar va davlat xo'jaliklari tashkil qilindi, bu yerdagi sug'orish va o'zlashtirish ishlarini tezlik bilan rivojlantirish ishlariga asosiy vazifa sifatida qaraldi. Faqat Qarshi cho'lida 1 mln gektardan ko'proq yer sug'orish uchun yaroqli bo'lib, iqlimi paxta yetishtirish uchun mos edi. Bunday qulay imkoniyatni oldindan bilgan hukumat vakillari bu hududdagi sug'orish, o'zlashtirish ishlarini tezlashtirish chora-tadbirlarini ko'rdilar.

Qarshi cho'lida yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish ishlari jarayonida dastavval yirik magistral kanallardan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi. Amudaryo suvini 132 km balandlikka ko'tarish uchun 78 km uzunlikdagi Qarshi magistral kanalining (QMK) Bosh qismining qurilishi belgilandi. Shu bilan birga ikkita yirik kanal, ya'ni Qarshi magistral kanali va uning Sho'rsoy tarmog'i (QMKning Chapqirg'oq kanali) hamda ikkita yirik suv omborlar: Tallimarjon va Sho'rsoy suv omborlari qurilishi rejalashtirildi. Yangi o'zlashtiriladigan yerlarni tayyorlash va aholi punktlarini qurish ishlari birga olib borildi.

Cho'lni o'zlashtirishda XX asr 60 yillarida qurilish ishlari boshlandi. Bu davr sug'orish tizimlarining qurilishi cho'lni o'zlashtirish loyihasi asosida amalga oshirildi. Ariqlar o'rniga beton kanallarining qurilishi avj oldi. Bu yangi o'zlashtirilgan yerlardagi zamonaviy sug'orish tarmoqlari sifatida vujudga keldi.

Zarafshon daryosini Qashqadaryoga quyish uchun qazilgan suv inshootlari sug'oriladigan maydonlar hajmini oshirdi. Bu viloyatda yangi yirik suv omborlarini qurilishiga sabab bo'ldi. Yangi yerlarni o'zlashtirish orqali suv manbalarini oshirish vazifasini bajarish bilan birga qo'shimcha sug'orish uchun gidrotexnik inshootlar qurish ham olib borildi.

Cho'ldagi sug'orilishi mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 848 ming gektarni tashkil qilib[1], undan 206 ming gektari birinchi navbatda o'zlashtiriladigan yer maydonlari edi. Ammo «Qarshiqurilish» boshqarmasi boshlig'i B. Usmonovning xotiralariga qaraganda, ish boshlangan

birinchi oylarda ishlovchilarning oylik maoshlari uchun mablag' vaqtinchalik viloyatning iqtisodiy jihatdan baquvvat xo'jaliklaridan, chunonchi, Beshkent tumanining o'sha vaqtdagi «III-Internatsional» (raisi H. Xo'jaqulov) va «Leninizm» (raisi Ch. Begimqulov) xo'jaliklaridan qarz olib turishga to'g'ri kelgan. Chunki qurilish ishlari boshlab yuborilgan bo'lsa-da, loyiha tasdiqlanmagandi[2].

Qarshi cho'lini o'zlashtirish uchun dastlab Markaz ko'rsatmasiga ko'ra turli millat vakillari ko'chirib keltirildi. Ulardan dastlabkilari rahbar Begelek Ovezov, Armani Aslanov, ukrain Radchenko, belorus Petr Boravulalar kabilar 1964 yil martidan cho'lini o'zlashtirish ishlarini boshlashdi. Cho'lda ishlash uchun 40 dan ortiq millat vakillari ishtirok etishdi. Ish sur'atlarini tezlashtirish uchun ishchilarni ko'chirtirib kelish yildan-yilga ko'payib bordi. Viktor Dedichkin, Nikolay Drozdov, Petr Bravul, Grisha Radchenko, Adolf Valyushko qurilish ishlarida yetakchilik qilishdi[3].

1964 yili 6 ta nasos stansiyali Qarshi magistral kanalining Bosh qismi qurilishi boshlandi[4]. «Qarshiqurilish» boshqarmasi 1964 — 1966 yillarda yirik masshtabdagi ishlarni bajardi. Boshqarma o'z atrofiga 26 ta mustaqil tashkilotni birlashtirdi. Dastlabki yillarda tarkibida 7 ming nafar kishini birlashtirgan yirik qurilish tashkiloti vujudga keldi[5].

Mirzacho'ldan farqli ravishda Qarshi cho'li yerlarida aholi yashash maskanlarini barpo etish ham hisobga olindi. Yangi o'zlashtiriladigan cho'l qismidan tashqari mazkur hududlarni suv ta'minotini yaxshilash ishlari ham cho'lini o'zlashtirish va sug'orish ishlari bilan birga qo'shib olib borildi. Magistral kanalning Bosh qismi bilan birga Qarshi cho'lining birinchi navbatidagi yerlarni o'zlashtirish uchun 11 ta xo'jaliklararo kanal, shuningdek, ko'pdan-ko'p kollektor-zovurlar qurish loyihasi tuzildi[6]. Natijada vohada qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdori oshdi. Masalan, paxta rejasi 1965 yilda rejadagi 190 ming tonnadan amalda 193785 ming tonnaga, 102 % bilan bajarildi. Bu 1964 yilga nisbatan 96 % ga ko'p edi[7].

Cho'lini o'zlashtirish ishlari asta-sekin jadallashib borib, 1964-1966 yillarda Qarshi va G'uzor gidrouzellarini qurildi va ishga tushirildi. Suv xo'jaligi qurilishida qator ishlar amalga oshirildi. 1966 yili viloyatda paxta terish va davlatga sotish bo'yicha davlat rejasini 1913 yilga nisbatan 100 marta ko'p bajarishdi[8].

Qarshi cho'lini o'zlashtirish nafaqat sug'orish inshootlarini qurishni, balki sug'orish jarayonida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash inshootlarini bunyod etish ham amalga oshirdi. 1967 yilda 100 km dan ortiq kanallar qayta qurilib, 180 km uzunlikda xo'jaliklararo kanallar betonlashtirildi, 270 km dan oshiq masofada kollektor-drenajlar qurildi[9]. Bularning barchasi Amudaryo suvini Qarshi cho'llari yerlariga keltirish uchun amalga oshirildi.

Tallimarjon va Pulizindonda mexanizatsiya bazasi qurildi. O'zlashtiriladigan yerlar paxtachilikni mexanizatsiyalashtirishning markazi bo'lib xizmat qildi. Sug'oriladigan yerlar maydoni hajmi borgan sari oshib bordi.

Sug'orish tizimi tarmoqlarini qayta tiklash va o'zlashtirilgan yangi yerlarda sug'orilish tarmoqlarining tez va suvni uzluksiz holda ta'minlanishiga qaratilgan irrigatsiya sohasidagi qilingan ishlar natijasida Qashqadaryo vohasida sug'oriladigan yerlar hajmi ortdi.

Jadval[10]

Qashqadaryo vohasida sug'oriladigan yerlar hajmining o'sish dinamikasi

Tr	1965 yilda	1966 yilda	1967 yilda	1968 yilda
1	145334 gektar	146506 gektar	146580 gektar	147099 gektar

Ko'rinadiki, Qarshi cho'lining o'zlashtirilishining jadal olib borilganligi va yangi yerlarning o'zlashtirilishi 1965 yildagiga nisbatan 1966 yilda 1172 gektar ko'p yerlarni sug'orish imkonini berdi. Garchi, sug'oriladigan yerlar 1967 va 1968 yillarda 1966 yilgi ko'rsatkichni bermasa-da, umuman olganda 1968 yilga kelib viloyatdagi sug'oriladigan maydonlar 1765 gektarga kengayishini ta'minladi.

Bu yillardagi eng yirik ishlar aynan suv xo‘jaligida amalga oshirildi. Qashqadaryo vohasida Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish ishlarida suv tanqis bo‘lgan hududlarni suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida yirik suv omborlari qurildi. Jumladan, 1960 yil 21 oktabr O‘zbekiston Ministrlar Sovetining «Pachkamar suv omborini qurilishi to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi[11]. O‘zbekiston SSR Melioratsiya va suv xo‘jaligi ministrligi «Uzgiprovodxoz» institutiga mazkur loyiha ishi - suv omborini qurishni ishlab chiqish haqida ko‘rsatma berdi. Bosh muhandis K.K. Pisarchik tomonidan tuzilgan 14349,05 ming rubl qiymatga ega loyiha 1961 yil 3 noyabrda tasdiqlandi[12]. Inshoot qurilgunga qadar G‘uzor tumanida mavjud 55 ming gektar yerdan faqat 20 ming gektari sug‘orildi[13].

Loyihaga ko‘ra 260 mln kubometr suv sig‘imiga ega bo‘lgan suv ombori Katta O‘ra daryosi, G‘uzordaryo o‘zanida qurildi. Qurilish loyiha narxi 17,3 mln rublni tashkil qildi. Dastlab «Chimqo‘rg‘onqurilish» boshqarmasi qurilish ishlarini boshlab yubordi. 1964 yili O‘zbekiston SSR Melioratsiya va suv xo‘jaligi ministrligi buyrug‘iga ko‘ra Pachkamar suv ombori obyektlarini ishga tushirish bo‘yicha komissiya hujjatlari 178465 rubl miqdorida ilova qilingan ro‘yxatga muvofiq tasdiqlandi[14]. Qurilish ishlari 1963 yilda boshlandi. 1964 yildan qurilish muddatidan oldin tugallash uchun ishlar avj oldirildi. 1965 yili «Chimqo‘rg‘onqurilish», «Qarshisuvqurilish» boshqarmasiga qarashli «Pachkamarsuvqurilish» boshqarmasiga aylantirildi. A.Y.Shcherbakov rahbarligidagi boshqarma suv ombor qurilishini oxiriga yetqazdi[15]. 1967 yil 29 dekabrda Pachkamar suv ombori 100 mln kubometr suvni yig‘ish imkoniga ega bo‘ldi[16]. 1968 yilda G‘uzor tumani hududiga suv bera boshladi. 1969 yil 12 oktabrda foydalanishga topshirildi. G‘uzor tumanidagi 5 ming gektar sug‘oriladigan yerlarning suv ta‘minoti oshirilib, 15 ming gektar yangi yerlarni sug‘orish imkoniyati paydo bo‘ldi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish ortdi. Masalan, G‘uzor tumani 1966 yili 7200 tonna paxta yetishtirgan bo‘lsa, 1970 yilda bu ko‘rsatkich qariyb 30000 tonnani tashkil qildi[17]. Chimqo‘rg‘on va Pachkamar suv omborlari qurilishi natijasida 1961 yildagi 80 mln kubometr suv o‘rniga 1969 yili 500 mln kubometr suv to‘plash mumkin bo‘ladi[18].

Sug‘oriladigan maydonlar kengayib viloyatning paxta yetishtirish rejasi ortdi. Viloyatda 1964-1966 yillarda yerlarni irrigatsiya holatini yaxshilash bo‘yicha qilingan chora-tadbirlar tufayli paxta hosili har gektariga 23,5 sentnerga ko‘paydi va 1966 yilda jami paxta ishlab chiqarish hajmi 217,3 ming tonnani, ya‘ni 1965 yildagiga nisbatan 23,3 ming tonna ko‘pni tashkil qildi[19].

Markaz vohada sug‘oriladigan maydonlarda suv ta‘minotini yaxshilash maqsadida loyihadagi gidrotexnik inshootlar qurilishini ko‘paytirdi va oldindan mavjudlari esa qayta qurildi. Sug‘orish manbalaridan gidrotexnik inshootlarsiz suv olishning ko‘pligi suvni tartibga solishni qiyinlashtirdi. Vohadagi manbalardan olinadigan 240 ta suv olish punktlarining bor yo‘g‘i 99 tasi muhandislik inshootlari bilan qurilgan edi[20]. Bu holat suvning isrof qilinishiga vohadagi sug‘oriladigan yerlarda suvning singib ketishini oldini olish choralarini ko‘rib chiqishga majbur qildi.

O‘sha yillar xotirasini eslar ekan - «Qarshiqurilish» boshqarmasining dastlabki boshlig‘i B.Usmonov shunday hikoya qiladi: «Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish harakati boshlanishi bilan keng qo‘lamda ishlar amalga oshirila boshlandi. Ishga bevosita aloqador rahbarlar tinim neligini bilmasdi»[21]. Qarshi cho‘lidagi 1969 yilgacha o‘zlashtirilgan hududlarda xo‘jaliklararo 117 km uzunlikdagi Cho‘l, Shimoliy va Janubiy kollektorning tarmoq kollektorlari qurib bitqazildi. Jami 96 mln metr kub, jumladan, Qarshi magistral kanalining bosh qismidan 36,2 metr kub tuproq ishlari bajarildi. 1969 yilga kelib 6 ta nasos stansiyaning kotlovani qazib qurishga tayyor qilib qo‘yildi va birinchi, ikkinchi, uchinchi nasos stansiyalar qurilishida 10,5 t. m3 beton yotqizildi[22]. Olib borilgan ishlar ko‘lami 1969 yilda kapital mablag‘lar rejasini 86 % ga, jumladan obyektlar bo‘yicha: suv bilan ta‘minlashni oshirish rejasi 112% ga, sug‘orish tizimlarini texnik holatini yaxshilash 71 % ga bajarilishini ta‘minladi. Kapital mablag‘lar rejasini 1969 yildan qurilishi boshlangan Yakkabog‘ gidrouzeli, Xalqobod kanali obyektlarida bajarilmadi[23].

1969 yilda asosiy inshootlar va quvvatlarning ishga tushirish rejasida Pachkamar suv omborining sug‘orish hududidagi o‘ng qirg‘oq magistral kanalini qurish, Pachkamar suv ombori kamchiliklarini bartaraf etish, Yakkabog‘ gidrouzelini qurilishi quvvatini oshirish kabi qurilish loyahasini ishga tushirish belgilandi. Ajratilgan mablag‘lar belgilangan sug‘orish inshootlari

qurilishiga sarflansa-da, yerlarni tinimsiz sug'orish natijasida sug'orish tarmoqlari ishdan chiqdi. Inshootlarni yiliga ta'mirlash talab qilindi.

Chimqo'rg'on, Pachkamar suv omborlarining qurilishi ekin maydonlarini ko'paytirdi. Xususan, Qashqadaryoning o'rta qismida sug'oriladigan yerlar 1967-1969 yillarda 2000 gektardan ziyodga kengaydi[24].

3. Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu davrda Qashqadaryo viloyati sug'orish tizimlari tarixida yirik irrigatsiya tarmoqlarini qurish tajribasi ilk bor sinovdan o'tdi. Sovet agrar siyosatining paxta yakkahokimligiga erishishdan iborat bo'lgan asosiy maqsadni amalga oshirish uchun birinchi navbatda yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish ishlariga jiddiy e'tibor qaratdi. Shu bois Qarshi cho'lini o'zlashtirish va sug'orish ishlari olib borildi. Cho'lini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish uzoq tarixdan boshlangan bo'lib, quyi va o'rta Qashqadaryo hududini suv bilan ta'minlashning amaliy harakatlari aynan Sovet davrida amalga oshirildi. Qarshi Bosh kanalining 78 km hududi, Dam kanali, Yakkabog' gidrouzeli va uning chapqirg'oq, o'ngqirg'oq kanallari qurildi. Qumdaryo kanali qurilishi boshlandi. Chimqo'rg'on va Pachkamar suv omborlari, Fayzobod, Beshkent kanallarini birlashtiruvchi Qarshi gidrouzeli qurildi.

Shuningdek, mavjud ariqlarning kanallarga aylantirilishida yerlarning ba'zi qismlari kanal sathidan yuqorida qoldi. Bu joylardagi yerlarni suv bilan ta'minlashni qiyinlashtirdi. Suv sarfining kamayishi hamda sug'orishda qiyinchiliklarni yuzaga chiqardi. Shunday bo'lsa-da, bu davr sug'orish tizimi tarixida yangi bir davrni yaratib bera oldi. Ushbu yillarda amalga oshirilgan qurilishlar Qashqadaryo vohasining suv xo'jaligi tarixida alohida bosqich hisoblanadi. Bugungi kunga qadar suv tarmoqlarining suv bilan ta'minlanishida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Каршинская степь и географические проблемы ее хозяйственного освоения. –Ташкент: «Фан», 1973. –С. 41-42. (Karshi steppe and geographical problems of its economic development. -Tashkent: "Fan", 1973. – P. 41-42.)
2. Dala materiallari. Irrigator R.Toshev axboroti. 2020 yil 16 may
3. «Qashqadaryo haqiqati» 1965 yil, 26 aprel
4. Siddiqov Sh. Cho'l chorlaydi// "O'zbekiston qishloq xo'jaligi", 1967 yil, 8-son, –B.36.
5. Ovezov B. Partiya madadkor // "O'zbekiston qishloq xo'jaligi", 1967 yil, 8-son, –B.33.
6. Абдурахмонова Т.Ўзбекистонда ирригациянинг ривожланиши. –Тошкент: «Ўзбекистон», 1972. –Б.30. (Abdurahmonova T. Development of irrigation in Uzbekistan. - Tashkent: "Uzbekistan", 1972. – P.30.)
7. QVDA, 439-fond, 1-ish, 78-ish, –B.2.
8. QVDA, 439-fond, 1-ish, 38-ish, –B.43.
9. «Qashqadaryo haqiqati», 1967 yil 31 dekabr
10. QVDA, 439-fond, 1-ish, 78-ish, 3-varaq
11. Хамраев Н., Мифтахов Р. Первая высокая плотина в Узбекистане. –Ташкент, 1971. –С.10. (Khamraev N., Miftakhov R. The first high dam in Uzbekistan. -Tashkent, 1971. -p.10.)
12. O'zMA, R.2483-fond, 1-ro'uxat, 2654-ish 4-varaq.
13. Қориев М. Ўзбекистонда сув омборлари. –Тошкент: «Ўзбекистон», 1969. –Б. 78. (Kariev M. Reservoirs in Uzbekistan. -Tashkent: "Uzbekistan", 1969. – P. 78.)
14. O'zMA, R.2483-fond, 1-ro'uxat, 3-ish. 1-varaq.
15. Пардаев А. Возрожденный край. –Ташкент: «Узбекистан», 1984. –С. 46.
16. O'zMA, R.2483-fond, 1-ro'uxat, 2654-ish 20-varaq
17. Хамраев Н., Р.Мифтахов. Первая высокая плотина в Узбекистане. –Ташкент, 1971. –С.10. (Khamraev N., Miftakhov R. The first high dam in Uzbekistan. -Tashkent, 1971. -p.10.)
18. Қориев М. Ўзбекистон сув омборлари. –Тошкент: «Узбекистон», 1969. –Б.41. (Kariev M. Reservoirs in Uzbekistan. -Tashkent: "Uzbekistan", 1969. – P. 41.)
19. QVDA, 439-fond, 1-ish, 60-ish, 62-63 betlar

20. QVDA, 79-fond, 1-ro'xhat, 98-ish. 16-varaq
21. Алимардонов Т. Ўчмас шараф. Тошкент: «Дано», 2017. –Б.70. (Alimardonov T. An indelible honor. Tashkent: "Dano", 2017. – P.70.)
22. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivi. 1-fond, 2-ish, 636-ish, 2-varaq.
23. O'zMA, R.2483-fond, 1-ish, 3190-ish, 2-varaq.
24. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 1969 yil, 2-son, –B.18-19.

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 6, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 6, ISSUE 8

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000